

TA'LIMDA PSIXODIAGNOSTIKANING AHAMIYATI

*Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
36-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi
Atamurodova Muxabbat Hamdamovna*

Taqriz: Psixodiagnostikadan foydalanish bo'yicha ko'plab tajribalar, metodlar, testlar bo'yicha to'plangan ma'lumotlarlar ko'plab darsliklar va ensiklopedik to'plamlarda berilgan.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida psixodiagnostikaning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Psixodiagnostika orqali o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari hamda ruhiy holatini aniqlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar bilan individual ishlash va ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlashda psixodiagnostik metodlarning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada zamonaviy psixodiagnostik usullarning amaliy qo'llanishi hamda pedagog va psixologlar faoliyatidagi o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, psixodiagnostika, o'quvchi shaxsi, psixologik taxlil, qobiliyat, individual yondashuv, psixologik diagnostika, ta'lim sifati.

Psixodiagnostika— shaxsning individual psixologik xususiyatlarini baholash, o'lchash nazariyalari, tamoyillari va vositalarini ishlab chiqadigan psixologiyaning bir bo'lim hisoblanadi. Psixologik diagnostika — shaxs guruhlarning psixik xususiyatlari, holatlari va taraqqiyot ko'rsatkichlarini aniqlab, sifatli va miqdoriy jihatdan o'lchab beradi. Shaxs hususiyatlarini kuzatish, o'lchash va aniqlash ya'ni tashxislash uchun Psixodiagnostikani metod va usullari va bilimlarini chuqur egallash orqali amalga oshirish mumkin . Ammo bundan oldin ushbu fan qanday vujudga kelgani va uning rivojlanishiga kimlar hissa qo'shgan, uning tarixini bilish maqsadga muvofiqdir.

Psixodiagnostika nazariy fan sifatida psixologiya fanining boshqa prednetli sohalari bilan uzviy bog'langan. Psixodiagnostikaning nazariy-eksperimental psixologiya bilan bog'liqligi o'ziga xos xarakter kasb etadi. Umuman olganda psixodiagnostika muayyan fanlarda mavjud bo'lgan tushunchalarni konkret metodikalarga birlashtirish emas, balki nazariy psixologik maslahatlarning to'g'ri ekanligini tekshirish usuli hamdir. Masalan, inson faoliyati motivlariga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi, deb ta'kidlansa, unda turli insonlarga xos bo'lgan motivlarni aniqlovchi metodlarni topish talab qilinadi.

Bundan tashqari psixodiagnostika umumiy psixologiya, differentsial psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, huquq

psixologiyasi, harbiy psixologiya, mehnat psixologiyasi va sport psixologiyasi kabi fanlar bilan uzviy aloqada. Shuningdek, psixodiagnostika amaliy fan sifatida amaliy psixologiyaning psixoprofilaktika, psixologik tashviqot, psixologik korrektsiya, psixologik maslahat kabi sohalar bilan o'zaro munosabatda hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi, umumta'lim maktablaridagi o'quv-tarbiya jarayoni bolalarning qobiliyati va layoqatlarini har tomonlama rivojlantirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik jarayonning mahsuldorligi pedagogning o'z o'quvchilarini yaxshi bilishiga, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashiga bog'liq.

O'qituvchi ta'lim va tarbiyadagi qiyinchiliklar nega va qanday paydo bo'lishini tushunishi uchun, avvalo bola psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi va turli psixik holatlarning psixologik diagnostika metodlarini egallashi zarur. O'qituvchi bolalar bilan ishlashda psixodiagnostik tadqiqot doimiy kuzatish jarayonida olingan natijalardan qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham muhim hisoblanadi. 20-asrda psixodiagnostika va uning qo'llanishi jadal rivojlandi va hozirgi vaqtda psixodiagnostikaning ko'plab usullari ishlab chiqilgan. Zamonaviy psixodiagnostikaning o'rganish usullari ikki guruhga bo'linadi: qat'iy rasmiylashtirilgan va yomon rasmiylashtirilgan usullarga.

Qattiq rasmiylashtirilgan usullarga testlar, anketalar, ba'zi proyektiv usullar va psixofiziologik usullar kiradi. Qat'iy rasmiylashtirilgan usullar batafsil tartibga solish, standartlashtirish tekshirish yoki sinov tartibini ob'ektivlashtirish bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchining subyektiv faoliyati, ishonchliligi va asosliligi ko'zda tutiladi. Qat'iy rasmiylashtirilgan usulda asosan kompyuter texnikalari orqali testlar o'tqaziladi.

Kamroq rasmiylashtirilgan usullarga kuzatishlar, suhbatlar va intervyular, faoliyat jarayonlarini tahlil qilish kiradi. Ular ayniqsa, ob'ektivlashtirish va rasmiylashtirish qiyin bo'lgan jarayonlar. Masalan, noto'g'ri amalga oshirilgan subyektiv tajribalar, shaxsiy ishlar yoki mazmunan juda o'zgaruvchan bo'lgan maqsadlar dinamikasi, holatlari, kayfiyatlari va boshqalar kiradi. Kamroq rasmiylashtirilgan usullar juda ko'p mehnat talab qiladi (masalan, mavzuni kuzatish ba'zan bir necha oy davomida amalga oshiriladi) va psixodiagnostikada katta professional mahorat va tajriba talab qilinadi.

Qat'iy rasmiylashtirilgan diagnostika usullari bir-birini to'ldiradi va birgalikda qo'llanishi kerak. Ma'lumotlarni tahlil qilishning yangi intellektual usullarini ishlab chiqish psixodiagnostikada kompyuterlardan foydalanish ko'lamini asta-sekin kengaytirmoqda. Yangi texnologiyalar va kompyuter tizimlari tomonidan psixologik jarayonlarni tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Psixologning kasbiy ish faoliyatining ajralmas va muhim jihati bu - psixodiagnostika qilish sanaladi. Bunday faoliyatda psixolog shaxsining ma'naviy axloqiy tomoniga katta e'tibor beriladi. "Axloq" va "ma'naviyat"

tushunchalari shunday meyor va prinsiplarni o'z ichiga oladiki, ular individlarning o'zaro va jamiyat o'rtasida qiziqishlarini tartibga solish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu meyorlar insonlarning yaxshilik va yomonlik tushunchalariga mos ravishda xulqlarini tartibga solishga yo'naltirilgan va shaxsiy fikr, urf-odatlar, tarbiya, jamiyat fikri bilan qo'llab quvvatlanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu tushunchalar shaxsning kasbiy ish

faoliyatida o'zini tutishi va fikrini tartibga solib turadi.

Suhbat asosida buning sabablarini aniqlash bo'yicha birlamchi axborot to'planadi

Psixodiagnostikani qo'llashning asosiy yo'nalishlari:

- Xodimlarni boshqarish, xodimlarni ishga olish va tanlash, kasbga yo'naltirish.
- Ta'lim va ta'limni optimallashtirish, bolalardagi psixologik muomolarni bartaraf etish.
- Ijtimoiy xulq-atvorni prognoz qilish
- Sud-psixologik ekspertiza.
- Maslahat, psixoterapevtik yordam.
- Klinik (bemorning psixologik holatini baholash, ambulatoriya yoki shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishda).

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixodiagnostikasining asosiy metodlaridan biri kuzatish metodi. Obyektiv kuzatish-- har doim ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lib, uning yordamida bolalarning turli psixik protsesslari hamda shaxsiy psixologik xususiyatlari o'rganiladi.

Bolani jamoada va jamoa a'zosi sifatida o'rganish. Bolalar o'zlarini kuzatilganini bilmasliklari kerak. Kuzatish metodida yaxshi natijalar olish uchun ularni turli sharoitda sistemali tarzda kun sayin o'rganish kerak.

Psixodiagnostika rivojlanish bosqichida yuzaga kelgan olimlarning qarashlari bir biridan farq qiladi, keyinchalik bu qarashlarning ayrimlari o'z ilmiy ifodasini topgan, ayrimlari esa yo'q. Psixodiagnostika faniga nisbatan turlicha fikr va qarashlar mavjud bo'lganligiga qaramay, uning asosiy tushunchasi "psixologik diagnoz" tashxis qo'yish degan ma'noni anglatadi va u shaxs xulq-atvoridagi turli psixologik hususiyatlarini ayni paytdagi holatiga baho berish, va oldindan bashorat qilish ya'ni prognoz qilishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2012.
3. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2008.
4. Nishonova Z.T. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. – Toshkent, 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.